


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar) 2017 yil yanvar-dekabr

2017 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 7562,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 4,3 % ga oshdi.

Xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet- savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish o'sishidan ilgarilab ketmoqda. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibida xizmatlarning ulushi 45,8 % ni tashkil etdi.




2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Viloyat jami	7562,9	104,3
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona	3133,6	105,6
Qo'qon	1020,8	103,1
Quvasoy	125,3	102,2
Marg'ilon	840,6	105,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	211,3	102,7
Qo'shtepa	127,5	101,0
Bog'dod	178,3	100,5
Buvayda	155,7	102,2
Beshariq	213,3	105,0
Quva	184,4	101,9
Uchko'prik	209,1	102,8
Rishton	174,2	103,4
So'x	63,1	101,8
Toshloq	184,9	108,5
O'zbekiston	168,4	102,6
Farg'ona	219,7	101,6
Dang'ara	179,7	102,8
Furqat	76,5	102,4
Yozyovon	96,7	103,5

Hududlar ichida eng yuqori o'sish sur'atlari Toshloq tumanida (108,5%), Farg'ona shahrida (105,6 %), Marg'ilon shahrida (105,4%), Beshariq tumanida (105,0 %) kuzatildi.

Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida hududlarning ulushi (% da)




Xizmatlar sohasini rivojlanishida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri egallab, 41,4% ni tashkil etadi, Qo'qon shahri esa 13,5% ni, Marg'ilon shahri 11,1% ni, Farg'ona tumani 2,9% ni, Oltiariq tumani 2,8% ni, Quvasoy shahri 1,7% ni va boshqa tumanlar 26,6% ni tashkil etadi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm

Shahar va tumanlar	Hajmi ming so'mda	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Viloyat jami	2105,3	102,6
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona	11333,2	104,2
Qo'qon	4 178,4	101,9
Quvasoy	1 400,0	100,7
Marg'ilon	3 708,1	104,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	1 047,3	101,3
Qo'shtepa	706,3	99,3
Bog'dod	874,1	98,6
Buvayda	719,2	100,3
Beshariq	980,7	103,2
Quva	748,2	100,1
Uchko'prik	964,3	100,9
Rishton	906,0	101,7
So'x	850,9	99,9
Toshloq	964,3	106,6
O'zbekiston	740,7	100,9
Farg'ona	1 080,1	100,2
Dang'ara	1 088,3	101,1
Furqat	677,4	100,6
Yozyovon	919,7	101,6


Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (11 333,2 ming so'm), Qo'qon (4 178,4 ming so'm) va Marg'ilon (3 708,1 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Oltiariq (1 047,3 ming so'm), Farg'ona t. (1 080,1 ming so'm) va Dang'ara (1 088,3 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da



Hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar bo'yicha - 120,7%; Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari -117,2%; ta'lim xizmatlari bo'yicha - 115,9%; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha - 112,6%; yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha - 104,9 % ga o'sdi.

Kichik tadbirkorlikning bozor xizmatlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish doirasida, tadbirkorlik sub'ektlariga, xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yangi tashkil etiladigan korxonalarni texnologik jihozlash uchun katta miqdordagi imtiyozli kreditlar taqdim etildi. Natijada, kichik tadbirkorlikning bozor xizmatlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 61,7 % dan 75,9 % ga ko'paydi.

Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: L.Yefimova

tel: (73) 241-72-44